

---

## “GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA BARCHA MASUL!”

Giyohvandlik butun dunyoda keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zero, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog'liq jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori. Narkotik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishning ortishi birinchi o'rinda og'ir kasalliklar va jinoyatlar sodir etilishining ko'payishiga olib keladi.

Hammamiz bilamizki, giyohvand moddalarni iste'mol qila boshlagan odam, qaysi tipda bo'lmasin, avvalo, unga odat yaratadi. Ammo bir yil o'tgach, preparat mehnatga yaroqsiz bo'lib qoladi. Natijada u jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi. Ya'ni navbatdagi giyohvandlik vositasini qabul qilish maqsadida o'g'irlikni o'z uyi - oilasidan boshlaydi. Giyohvandlik va giyohvandlikning yosh avlod tarbiyasiga, insoniyat kelajagiga katta zarar yetkazishi butun jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham bu falokatga qarshi kurash hozirgi kunda yer maydonidagi global muammolardan biriga aylandi.

Asr vabosiga qarshi kurashish barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetga chiqmasligi kerak. Bu jarayon umummilliy kurashga aylanishi kerak. Shundagina minglab yoshlarning kelajagini, oilalarimiz tinchligini asrab- avaylaymiz. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichining o'ziga xos shart- sharoitlari, aholining katta qismini ijtimoiy yo'qotish giyohvand moddalar iste'moli dinamikasining o'sishiga olib keladi.

Turli sabablarga ko'ra mavjud dori-darmonlarga qarshi chora-tadbirlar tizimi barqaror emas va haqiqiy holatga mos kelmaydi. Vaziyatning asosiy xususiyati shundaki, giyohvandlik muammosi yosh avlod o'rtasida tobora keng tarqalmoqda. Xalqimizning erkin va farovon hayot kechirishi va bugungi kundan rozi bo'lishi uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bir qator vazirlik va idoralar tomonidan tunu-kun mehnat qilinayotgan bir vaqtda ayrim irodasi sust kimsalar giyohvandlik balosiga muhtal bo'layotgani barchamizni tashvishga soladi.

“Asr vabosi deb atalayotgan bu-jirkanch illatning yoshlar orasida keng avj olayotganligi yanada ayanchli holat hisoblanadi buning oqibatida qanchadan qancha tinch-totuv yashayotgan oilalar barbod bo'lmoqda va qanchadan-qancha bolalar yetim qolmoqda va yana qanchadan-qancha begunoh go'daklar nuqson bilan dunyoga kelmoqda.

Shuningdek, ushbu jirkanch illat giyohvandlik OITS, gepatit, sil kabi og'ir va bedavo xastaliklarning tarqalishiga ham sabab bo'lamoqda. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yurtimizda “Barcha sayi harakatlar inson qadri uchun” deb nomlangan ezgu maqsad yo'lida harakat qilinayotgan davrda ayrimlarning mana shunday jirkanch illatga ruju qo'yishi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi milliy va xalqaro mutaxassis olimlarning tadqiqotlari natijasidan ham ayon bo'ldi. Hozirgi kunda jamiyatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholanib qolinayotgan holatlar ham uchrab turibdi. Bizning fikrimizcha, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki jamoat tashkilotlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, oila va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi.

Shu sababli ham jamiyatimizda yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar aylanmasiga chek qo'yish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun barchamiz birdek ma'sulmiz. Alloh taolo barchamizni, xususan yosh avlod bo'lgan aziz farzandlarimizni barcha salbiy illatlardan o'z panohida asrasin. Omin!

**Muhammadnabi Oripov,**

**Rishton tumani bosh imom-xatibi**

2024-10-07 15:17:18